

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S. U. PO' LATOVA

KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

«TURON - IQBOL»
TOSHKENT — 2006

Taqrizchilar: **N. Hasanova** – Buxoro Yengil sanoat kasb-hunar kolleji o'qituvchisi.

S. A. Hamroyeva – Buxoro Oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutining «TSMT» kafedراسи mu-diri, dotsent.

S. U. Po'latova.

Kiyimni konstruksiyalash. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Turon-Iqbol», 2006-y, 120 bet.

O'quv qo'llanmada kiyim to'g'risida umumiy ma'lumotlar, kiyimning kelib chiqishi tarixi, uning vazifalari, mo'ljallanishi bo'yicha tasnifi, kiyimning sifat ko'rsatkichlari va uni baholash omillari keltirilgan. Kiyimni yaratishda odam tanasining tuzilishi haqida ma'lumotlar, tanani o'lchash usullari va qo'llanadigan asboblار, kiyimning tashqi va ichki tuzilishi, shakli, konstruksiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Kiyimning konstruksiya chizmasini hisoblash va yaratish, andazalar tayyorlash va ularni texnik ko'paytirish usullari yoritilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

KIRISH

Bugungi kunda jahon bozorida tabiiy mahsulotlarga talab juda katta. Shu bois Respublikamizda mahalliy tabiiy xomashyodan ishlab chiqariladigan tikuvchilik mahsulotlari hajmini ko'paytirish, kiyim strukturasini yanada takomillashtirish, sifatini yaxshilash, raqobatbardosh va xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun Respublikamizning tikuvchilik korxonalarida yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi majmua mexanizatsiyalashtirilgan jarayonlarni qo'llash, yangi materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda yangi kichik korxonalar barpo etish ishlarini yo'lga qo'yish talab qilinadi. Tayyor kiyim yuqori sifatli va ishlab chiqarish jihatidan samarali bo'lishi uchun unga loyihalash bosqichidayoq zamin yaratish lozim.

Kiyimni konstruksiyalash loyihalashning eng muhim qismi bo'lib, u badiiy konstruktorlik va texnik vazifalarining yechimini o'z ichiga qamrab oladi. Yetakchi tarmqolar tajribasidan ma'lum avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini yaratish va amaliyotda qo'llash loyihalash jarayonini takomillashtirishning taraqqiyoti va perspektiv asosi hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining asosiy maqsadi – sifatni yaxshilash, moddiy harajatlarni kamaytirish va loyihalash muddatlarini qisqartirishdir.

Modaning almashib turishi, kiyimning eng muhim fazilatlaridan biridir. Har bir yangi tavsiya etilgan kiyim modeli uchun baza asosi konstruksiyasini yaratish birmuncha murakkab vazifa hisoblanadi. Ishni yengillashtirishda har xil va baza konstruksiyalardan foydalaniladi.

Mazkur o'quv qo'llanma, kiyim haqida umumiy ma'lumot, uning tasnifi, kiyimga qo'yiladigan talablar, kiyimni konstruksiyalash, kiyimning tashqi ko'rinishi, tuzilishiga doir badiiy va texnik masalalar yechimini o'z ichiga olgan.

I. KIYIMNI LOYIHALASH UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLAR

1.1. USLUB VA MODA. KIYIM KOMPOZITSIYASINING ASOSIY TAMOIYILLARI

Kiyimning shakli. Shakl buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Zamonaviy kiyim yumshoq va egiluvchan bo'lgani sababli o'z shakliga ega emas. Shu bois kiyimning shakli deganda, uning odam tanasida hosil qilgan konfiguratsiya tushuniladi. Shaklni, asosan, uning tuzilishi konfiguratsiya yuzasining ko'rinishi tavsiflaydi. Bu xususiyatlarning parametrlari o'zgarib turadi. Ular modaga, yil fasli, yoshga, tana o'lchamlari, shaklga, kiyim turi va materialiga hamda estetik talablarga bog'liqdir. Shakllar tuzilish bo'yicha *oddiy* va *murakkab* bo'ladi. Oddiy shakl bir bo'lakdan iborat. Masalan: yubka yoki ko'ylak. Murakkab shakl yagona yaxlitlikni tashkil etgan bir necha bo'laklar tizimidan iboratdir.

Vazifasiga ko'ra, shakl, asosiy qo'shimcha va dekorativ qismlarga bo'linadi. Shaklning asosiy qismi kiyimning o'lini aniqlaydigan bo'laklardir. Masalan: yengil kiyimda asosiy qismlar lif va yubka hisoblanadi. Ust kiyimlarda esa, ularga yeng va yoqa qo'shiladi.

Shaklning qo'shimcha bo'laklari muayyan kiyim xilining tarkibiga kirishi shart bo'lmagan qismlar (ko'ylakning yengi va yoqasi) dir.

Dekorativ qismlar shaklning asosiy va qo'shimcha qismlarini o'zgartirib xillarini ko'paytiradi.

Shaklning konfiguratsiyasi bu uning geometrik ko'rinishi va tashqi konturlarining chizig'idir.

Shaklning konfiguratsiyasini ifodalaganda geometrik shakllar (to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya, oval va h. k.) harflar va raqamlar (II, 8, X shakllar va h.k.) bilan